

# O'zbekiston Prezidenti va Qatar Amiri ikki tomonlama hamkorlikni yangi darajaga olib chiqishga kelishib oldilar



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining  
MATBUOT XIZMATI

Samarqand shahridagi Kongress markazida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va davlat tashrifi bilan mamlakatimizda bo'lib turgan Qatar Davlati Amiri shayx Tamim bin Hamad Ol Soniying muzokaralari bo'lib o'tdi.

Siyosiy muloqot va madaniy-gumanitar almashinuvni yanada rivojlantirish, savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy hamkorlikni kengaytirish masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

Uchrashuv avvalida Qatar Amiri davlatimiz rahbariga tashrif bilan kelish taklifi hamda Qatar delegatsiyasiga ko'rsatilayotgan iliq va samimiy qabul uchun minnatdorlik bildirdi.

Diplomatik munosabatlar tarixida birinchisi bo'lgan ushbu oliy darajadagi tashrif ikki tomonlama hamkorlikda yangi bosqichni boshlab berishi hamda uni keng qamrovli sheriklik darajasiga ko'tarishga xizmat qilishi qayd etildi.

- Biz Qatarni nafaqat Yaqin Sharq mintaqasida, balki butun arab-musulmon olamida o'zimizning istiqbolli hamkorimiz sifatida bilamiz. Siz bilan so'nggi yillardagi muloqotlarimiz bois munosabatlarimizda katta siljish kuzatilmoqda, - dedi davlatimiz rahbari.

Joriy yilda Toshkent shahrida Qatar elchixonasi ochilgani ikki tomonlama hamkorlikni faol ilgari surishda muhim o'rinn tutgani ta'kidlandi. Qatar tomoni Dohada O'zbekiston elchixonasi ochilishi ushbu jarayonga kuchli sur'at bag'ishlashiga ishonch bildirdi.

Tomonlar o'zaro savdo ko'rsatkichlarini oshirish, qo'shma investitsiya loyihalari va savdo shartnomalarini amalga oshirishga tayyor ekanliklarini ta'kidladilar.

Qatarning yetakchi kompaniyalari energetika, gaz-kimyo sanoati, qishloq xo'jaligi, infratuzilma, logistika, turizm va boshqa tarmoqlarda umumiy qiymati 12 milliard dollardan ziyod yirik investitsiya loyihalarini

amalga oshirishda ishtirok etishi yuzasidan kelishuvga erishildi.

Istiqlolli loyihalarni qo'llab-quvvatlash maqsadida shu yil sentyabr oyida O'zbekiston-Qatar investitsiya forumini o'tkazish hamda qo'shma loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlarini yaratish masalasini ko'rib chiqish taklif etildi.

Davlat rahbarlari Markaziy Osiyoni Ko'rfa mamlakatlari bilan bog'laydigan eng qisqa, ishonchli va xavfsiz yo'laklarni shakllantirish muhimligini qayd etdilar.

Madaniyat, ta'lim va turizm sohalaridagi almashinuvlarni faollashtirishga qaratilgan sa'y-harakatlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlashga, shu jumladan birgalikda madaniyat kunlari, konsert dasturlari, ko'rgazmalar, hunarmandchilik va pazandachilik namoyishlarini o'tkazishga kelishib olindi. Mamlakatlarimiz poytaxtlari o'rtaida yo'lga qo'yilishi rejalsatirilayotgan muntazam aviaqatnovlar ishbilarmonlik aloqalari va o'zaro sayyoohlar oqimining ortishiga xizmat qilishi ta'kidlandi.

Global va mintaqaviy ahamiyatga molik dolzarb masalalar yuzasidan ham fikr almashildi. Tomonlar Afg'onistonga nisbatan pragmatik siyosat yuritilishi, mamlakat iqtisodiyotini qo'llab-quvvatlash va afg'on xalqiga insonparvarlik yordami ko'rsatilishi muhimligini ta'kidladilar.

Shu ma'noda, Transafg'on temir yo'lini barpo etish bo'yicha strategik loyihani amalga oshirishni birgalikda ilgari surish istiqbollari ko'rib chiqildi.

Uchrashuv so'ngida shayx Tamim bin Hamad Ol Soniy davlatimiz rahbarini Qatarga tashrif bilan kelishga taklif qildi.

Muzokaralar konstruktiv, ochiq va ishonchli ruhda o'tdi.





*Manba*